

IQTISODIY SUDLARDA YARASHTIRISH TARTIB-TAOMILLARINI QO‘LLASHNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Komiljonov Muslimbek Qobiljon o‘g‘li

*Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti
komiljonovmuslimbek67@gmail.com*

Annotatsiya: *mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy sud ish yurituvchi jarayonida nizolarni o‘zaro tinch yo‘l bilan hal etish uchun kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuvga erishishda yuzaga kelayotgan ayrim muammolar, ba’zi qonunchilik normalari o‘rtasidagi ziddiyatlar va noaniqliklar bayon qilinib, huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish hamda bu boradagi xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari to‘g‘risida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *kelishuv bitimi, mediativ kelishuv, muzokaralar olib borish ko‘nikmasi, sud yarashuvi, sud yarashuvchisi, “avval mediatsiya” tamoyili.*

Ta’kidlash joizki, iqtisodiy sud ish yurituvchi taraf sifatida ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasidagi nizolarni tartibga soluvchi, ularni kelishib olishga har tomonlama ko‘maklashuvchi tartib-taomillarning mavjudligi, shubhasiz, inson va fuqarolik huquqlari va erkinliklarini tan olish, saqlash hamda himoya qilish bilan bog‘liq asosiy konstitutsiyaviy normalarni amalga oshirish hisoblanadi. Bunda sudlar nizolarni hal etishning muqobil usullarini rivojlantirishga har tomonlama ko‘mak beradi. Zotan, bu usullar sudlardagi ishlar sonini maqbullashtirishga, odil sudlovni samarali amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratishga imkon tug‘diradi. Odatda tadbirkorlar o‘z hamkorlari bilan vujudga kelgan nizolarini tinch yo‘l bilan, o‘zaro hamkorlik munosabatlarini tugatmay, qisqa fursatlarda va kam xarajatlar bilan hal etishni istaydi. Bunday hollarda nizolarni kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish orqali hal etish eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda xalqaro tajribadan kelib chiqib, nizolarni hal qilishning muqobil usullarini keng joriy etish, xususan, yarashirish tartib-taomillari institutini takomillashtirishga bo‘lgan e’tibor sezilarli darajada kuchaydi. Jumladan, ularning huquqiy asoslari yaratildi, huquqni qo‘llash amaliyotini yanada rivojlantirish yuzasidan Prezidentimizning maxsus qaror va farmonlari qabul qilindi. Biroq, shu bilan birgalikda amaldagi qonunchilikda va huquqni qo‘llash amaliyotida ayrim bo‘shliqlar, e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan muammoli holatlar ham mavjudligini e’tirof etish lozim.

Birinchidan, kelishuv bitimi tuzishda yuzaga keladigan dastlabki muammo bu nizolashuvchi tomonlar yarashuviga yordam berishda sudning passivligi hamda sudya tomonidan taraflarni yarashirish va kelishuv bitimini tuzishga undash bo‘yicha aniq ishlab chiqilgan ko‘rsatmalarning yo‘qligidadir. Amaldagi Iqtisodiy protsessual qonunchilikka ko‘ra, ishni sud muhokamasiga tayyorlash jarayonida sudyaning asosiy vazifalaridan biri taraflarni yarashirish choralari ko‘rishdir. Biroq, qonunchilikda sudya taraflarni yarashirish uchun qanday choralar ko‘rishi mumkinligi nazarda tutilmagan. Amaliyotda ko‘pincha sudyalarning taraflarga kelishuv bitimini tuzish huquqini, uning oqibatlarini va

afzalliklarini rasman tushuntirish bilan cheklanadi. Biroq, yarashuv nafaqat huquq, balki psixologiya, muzokaralar olib borish ko'nikmalariga ega bo'lish va bilishni ham talab qiladigan murakkab jarayon hisoblanadi. Shu boisdan bu masala bo'yicha maxsus ko'rsatmalar ishlab chiqish va sudyalardan tomonidan yarashuv jarayonlarini olib borish bo'yicha aniq bir mexanizm yaratish zaruriyati mavjud, degan fikrdamiz.

Bu borasida xorijiy davlatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasida sud yarashuvi instituti mavjud bo'lib, u sud yarashuvchisi maqomini olgan iste'foga chiqqan sudyalardan tomonidan amalga oshiriladi va sud yarashuvchisining mustaqilligi, xolisligi va halolligi prinsiplariga asoslanadi. Sud yarashuvini o'tkazish tartibi va sud yarashuvchisiga qo'yiladigan talablar Arbitraj protsessual kodeksining tegishli normalari va Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining 2019-yil 31-oktabrdagi 41-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan "Sud yarashuvini o'tkazish qoidalari" bilan belgilangan. Sud yarashuvi taraflarning iltimosiga ko'ra yoxud taraflarning roziligi bilan sudning og'zaki yoki yozma taklifiga asosan amalga oshirilishi mumkin. Sud yarashuvchisi sud muhokamasining ishtirokchisi hisoblanmaydi va ishda ishtirok etuvchi shaxslar va arbitraj muhokamasining boshqa ishtirokchilarining huquqlari yoki majburiyatlari paydo bo'lishiga, o'zgarishiga yoki bekor bo'lishiga olib keladigan harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

Ikkinchidan, kelishuv bitimi tuzishdagi muammolardan yana biri ushbu bitimni tuzish huquqiga ega subyektlar doirasi cheklanganligi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 131-moddasida taraflar nizoni kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzib hal etishi mumkinligi belgilangan. E'tibor qaratish lozimki, bu yerda kelishuv bitimi tuzish huquqiga ega shaxslar doirasi sifatida faqatgina taraflar nazarda tutilgan. Taraflar deganda da'vo tartibida yuritiladigan ishlarda da'vog'ar va javobgar huquqiy maqomiga ega bo'lgan shaxslar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2009-yil 18-dekabrda 204-sonli "Iqtisodiy sudlardan tomonidan kelishuv bitimini tasdiqlashda protsessual qonun normalarining qo'llanilishiga oid ayrim masalalar to'g'risida"gi qarorida esa taraflar bilan birgalikda nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar ham kelishuv bitimi tuzish huquqiga ega ekanligi to'g'risida tushuntirish berilgan. Biroq, Iqtisodiy protsessual kodeksning 48-moddasi ikkinchi qismiga asosan nizoning predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslarda kelishuv bitimi tuzish vakolati mavjud emasligi ta'kidlanadi. Vaholanki, Fuqarolik protsessual kodeksining 49-moddasida da'vog'ar va mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxs o'rtasida kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzilishiga yo'l qo'yilishi lozimligi nazarda tutilgan. Xalqaro amaliyotda ham nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar kelishuv bitimi tuzish vakolatiga ega subyektlar sifatida e'tirof etilgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksining 139-moddasiga ko'ra, nizo predmetiga nisbatan mustaqil da'volar qo'yilmaydigan uchinchi shaxslar ushbu shartnoma shartlariga muvofiq huquqlarga ega bo'lgan yoki majburiyatlar yuklangan hollarda kelishuv bitimining taraflari sifatida chiqish huquqiga egadir.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Iqtisodiy protsessual kodeksi 131-moddasiga qo'shimchalar kiritgan holda kelishuv bitimini tuzish huquqiga ega subyektlar

doirasini hamda ular qanday hollarda kelishv bitimi tuzishi mumkinligini aniq belgilab qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, kelishuv bitimini tasdiqlash masalasini sud majlisida ko'rib chiqishda taraflarning ishtirokini ta'minlash zaruriyati ham e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksning 133-moddasi ikkinchi qismida "sud majlisining vaqti va joyi to'g'risida tegishli tarzda xabardor qilingan shaxslarning kelmaganligi kelishuv bitimini tasdiqlash haqidagi masalani ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi" deb belgilangan. Ammo, sud majlisiga taraflardan birining kelmasligi, tuzilgan kelishuv bitimining o'z ixtiyori bilan tuzilganligiga shubxa tug'dirishi mumkinligini hamda kelishuv bitimini tuzish oqibatlarini sudya taraflarga tushuntirishi lozimligini hisobga olib, taraflarning sud majlisidagi ishtirokini majburiy qilib qo'yish lozim degan fikrdamiz. Xorijiy tajribaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual kodeksining 141-moddasida kelishuv bitimini tasdiqlashda taraflar ishtiroki majburiyligi belgilangan. Unga ko'ra, kelishuv bitimi ish qaysi sudning ish yurituvida bo'lsa, o'sha sud tomonidan tasdiqlanadi. Kelishuv bitimini tasdiqlash sud majlisida ko'rib chiqiladi. Sud majlisiga taraflar va boshqa shaxslar chaqiriladi. Taraflar sud majlisiga kelmasa, u holda kelishuv bitimini tasdiqlash masalasi ko'rib chiqilmaydi, faqat sud majlisini taraflar ishtirokisiz ko'rish to'g'risida iltimosnoma berilgan holatlar bundan mustasno. Mazkur normaning qonunchilikda aks ettirilishi nafaqat ishning keyingi holatiga ijobiy ta'sir etadi, shu bilan birga ijro jarayonida ham muammolar kelib chiqishining oldini oladi.

Shuningdek, qonunchilikka ko'ra kelishuv bitimi shartlari ixtiyoriy ravishda bajarilmagan taqdirda, huquqi buzilgan shaxsning sudga bergan arizasiga asosan sud tomonidan ijro varaqa beriladi. Shunday tartib ham amalda ma'lum ma'noda ortiqcha qog'ozbozlik va vaqtni talab qiladi. Amaliyotda shunday mexanizmni yaratish kerakki, kelishuv bitimi shartlari ixtiyoriy bajarilmagan taqdirda ma'lum muddat o'tgach huquqi buzilgan shaxsning bevosita majburiy ijro organlariga qilgan murojaati asosida nizo yuzasidan majburiy ijro harakatlarini amalga oshirish imkoniyati yaratilishi bu boradagi ishlarni yanada osonlashtiradi.

O'tgan davr mobaynida jamiyatimizda mediatsiyani yanada ommalashtirish va keng qo'llash maqsadida qonunchilik hujjatlarida uni sudgacha, sudda va ijro bosqichlarida ham qo'llash mumkinligi, shuningdek sudlarda mediativ kelishuv tuzilganda davlat boji qaytarib berilishi kabi imtiyozli normalar belgilandi. Shunga qaramasdan nima sababdan hozirgi kunda iqtisodiy nizolar bo'yicha mediatsiyaga erishish xorijiy davlatlar amaliyotidan farqli o'laroq, milliy sud amaliyotida keng qo'llanilmayotganligi va bunga qanday salbiy omillar ta'sir ko'rsatayotganligi haqida savollar tug'ilishi ham tabiiy hol. Nizolashuvchi taraflar mediatsiya tartib-taomiliga murojaat qilmasligining sabablarini uch turkumga bo'lish mumkin:

tashkiliy jihatdan – xizmatlar uchun reklama yo'qligi sababli nizo ishtirokchilarining shunday tartib mavjudligi to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega emasligi, tajribali mediatorlar yetishmasligi;

iqtisodiy jihatdan – mediator xizmatlari uchun to‘lanadigan narxlarning optimallashtirilmaganligi va nizoda haq bo‘lib turgan tarafning nizoni hal qilish uchun pul to‘lashni istamasligi;

subyektiv yoki psixologik jihatdan – mediatsiyaning yangi soha ekanligi, vositachiga ishonchsizlik, uning professionalligi va nizolarni hal qilish sifatiga shubha bilan qarashi kabi omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Fikrimizcha, ushbu sabablarning barchasi birgalikda mediatsiya tartib-taomili rivojlanishida katta to‘siq bo‘lmoqda.

Huquqshunos olim T.Xudoykina mediatsiya tartib-taomillariga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarga aholi va tadbirkorlik subyektlarining xabardorlik darajasi pastligi bilan birga mediatorni rad qilish va uni almashtirish tartiblarining ishlab chiqilmaganligi, mediatsiyani qo‘llash uchun belgilangan muddatga mediator tomonidan rioya etilmasligi kabi omillarni keltirib o‘tgan. Bundan tashari, huquqni qo‘llash amaliyotida va mediatsiya tartib-taomiliga oid mavjud qonunchilikda tartibga solinishi lozim bo‘lgan ayrim bo‘shliqlar ham majud bo‘lib, ular quyida barafsil yoritiladi.

Birinchidan, tuzilgan mediatsiya shartnomasining noqonuniyligi uchun mediatorning javobgarligi masalasiga amaldagi qonun hujjatlarida oydinlik kiritilmagan. Ma‘lumki, O‘zbekiston Respublikasining “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, mediator taraflar oldida mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirish natijasida yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishi belgilangan. Biroq, e‘tibor qaratish lozimki, bu norma bilan mediatorning fuqarolik-huquqiy javobgarligi nazarda tutilgan bo‘lib, Fuqarolik kodeksining 14-moddasiga asosan zarar deganda, huquqi buzilgan shaxsning buzilgan huquqini tiklash uchun qilgan yoki qilishi lozim bo‘lgan xarajatlari, uning mol-mulki yo‘qolishi yoki shikastlanishi, ya‘ni bu haqiqiy zarar, shuningdek bu shaxs o‘z huquqlari buzilmaganida odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitida olishi mumkin bo‘lgan, lekin ololmay qolgan daromadlari ya‘ni, boy berilgan foyda tushuniladi.

Xorijiy davlatlarda, xususan, Moldova Respublikasida mediatorlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoliklar va qonunbuzilish holatlari bo‘yicha javobgarlik choralari belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra bunday holatda Mediatsiya Kengashi tomonidan ularga nisbatan ogohlantirish, tanbeh berish, mediator faoliyatini bir oydan olti oygacha to‘xtatib turish hamda mediator guvohnomasini bekor qilish kabi choralar ko‘rilishi mumkin. Bundan tashqari, AQSHning Florida, Virjiniya, Jorjiya, Minnesota, Meyn va Shimoliy Karolina shtatlarida mediatorlarning maxsus reestrda ro‘yxatga olingan yoki tegishli sud qarori asosida mediatorlikda ishtirok etuvchi mediatorlarning harakatlari ustidan shikoyat qilish qoidalari belgilangan. Masalan, Florida shtatidagi mahalliy qoidalarga ko‘ra, mediator tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlikning xususiyatiga qarab, unga nisbatan muntazam og‘zaki ogohlantirish, yozma tanbeh berish, kelgusida vositachi sifatida ishtirok etishi mumkin bo‘lgan ishlar toifalari bo‘yicha cheklashlar o‘rnatish, mediator guvohnomasi faoliyatini bir yilgacha muddatga to‘xtatib turish va mediator guvohnomasini bekor qilish kabi jazo choralari qo‘llanilishi mumkin.

Ikkinchidan, maxsus o‘quv kursini tamomlagan professional mediatorlar o‘z faoliyatlarini boshlashi uchun xususiy mediatsiya markazlarini tashkil qilishni qo‘llab-

quvvatlash va ularni zarur moddiy-texnik baza bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish lozim. Shu bilan birga, Iqtisodiy sud binolarida alohida mediatsiya xonalarini tashkil qilish ham mediatsiya institutini amaliyotga keng joriy qilishga imkon beradi. Professional mediatorlar dastlab o'z faoliyatlarini yo'lga qo'yib olishida Moldova Respublikasida yaxshi amaliyot yo'lga qo'yilgan. Mazkur davlatda mediator maqomini olgan shaxslar Adliya vazirligi tomonidan yuritiladigan mediatorlarning davlat reestriga kiritilganidan so'ng yakka o'zi yoki boshqa mediatorlar bilan birlashib mediatsiya byurolarini tashkil etishlari mumkin. Bunda mediator maqomini olgan advokatlar va notariuslar mediatorlik faoliyatini mediatsiya byurosini tuzmasdan hamda mediatorlik faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilot tomonidan tuziladigan mediatorlar ro'yxatiga kiritilmasdan amalga oshirishlari mumkin.

Uchinchidan, ta'kidlash lozimki, xorijiy davlatlarda mediatsiya instituti rivojlanishida mediatorlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi, ularga ilmiy-amaliy tavsiyalar beruvchi, uslubiy yordam ko'rsatuvchi, mediatorlar kasb etikasi qoidalarini joriy qilish va boshqa vazifalar amalga oshirilishini ta'minlaydigan muayyan tuzilmalar muhim rol o'ynagan. Misol uchun, Gruziyada bugungi kunda xususiy mediatsiya markazlari faol rivojlanmoqda va 2015-yilda 200 nafar mutaxassislardan iborat bo'lgan "Mediatorlar assotsiatsiyasi" tashkil etildi. Ushbu assotsiatsiyaning o'zi mediatorlar uchun axloqiy me'yorlar va mediatsiya qoidalarini belgilaydi. "Mediatsiya to'g'risida"gi qonun qabul qilinguniga qadar ushbu qoidalar mediatorlar hamda assotsiatsiya a'zolari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Ushbu tashkilot mediatorlarni tayyorlash, malakasini oshirish va sertifikatlash bilan ham shug'ullanadi. Moldova Respublikasida esa bunday muvofiqlashtiruvchi organ Mediatsiya Kengashi deb ataladi va u mediatorlarning uzluksiz kasbiy ta'limini ham nazorat qiladi. Biroq, mamlakatimizda yuqoridagilar kabi mediatorlarning faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi maxsus organ yoki tuzilma mavjud emas. Shunday ekan, mamlakatimizda ham professional va noprofessional mediatorlar faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi tuzilmaning tashkil etilishi mediatsiya instituti rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

To'rtinchidan, mediatsiya tartib-taomilini amalga oshirishda ayrim qonun normalari o'rtasida ziddiyatlarning mavjudligi, ba'zi normalardagi noaniqliklar uni to'laqonli amalga oshirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 131-moddasi uchinchi qismida "mediativ kelishuv birinchi instansiya sudida sud alohida xonaga (maslahatxonaga) sud hujjatini qabul qilish uchun chiqquniga qadar taraflar tomonidan tuzilishi mumkinligi" belgilangan. Biroq, O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida" Qonuni 15-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, "mediatsiya suddan tashqari tartibda, nizoni sud tartibida ko'rish jarayonida, sud hujjatini qabul qilish uchun sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirguniga qadar, shuningdek sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish jarayonida qo'llanilishi mumkin". E'tibor berish lozimki, Iqtisodiy protsessual kodeksidan farqli ravishda, mediatsiyani tartibga soluvchi maxsus qonun uni amalga oshirishni muayyan sud instansiyasi bilan cheklamaydi va ijro jarayonida ham mediativ kelishuv tuzilishi mumkinligini nazarda tutadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish

to‘g‘risida” Qonunida ham ijro jarayonida mediatsiyani amalga oshirishni nazarda tutuvchi normalar belgilangan.

Fikrimizcha, yuqoridagi kabi qonunchilik normalari o‘rtasidagi ziddiyatlar va noaniqliklarga barham berish hamda ularni to‘g‘ri qo‘llanilishiga erishish, shu bilan birga, sud amaliyotini birxillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan “Mediativ kelishuv tuzishda moddiy va protsessual huquq normalarining qo‘llanilishiga oid ayrim masalalar to‘g‘risida” qaror qabul qilinishi bu boradagi muammolarga samarali yechim bo‘ladi.

Xorij tajribasidan ma‘lumki, mediatsiya instituti bu davlatlarda o‘zidan o‘zi shakllanib qolmagan, balki uning amaliyotda jadal rivojlanishiga turtki bo‘lgan muayyan bir chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Misol uchun, Xitoyda mediatsiyani rivojlantirishda sud tizimida “mediatsiyaning ustuvorligi va uning sud ishlarini yuritishdagi uyg‘unligi”ga e‘tibor qaratildi va sudya barcha toifadagi ishlarni ko‘rib chiqishda mediatsiyaga ustunlik beradi. Nizolarning ma‘lum bir toifasi uchun “avval mediatsiya” tamoyilini joriy etilgan va sud tomonidan mediativ kelishuv va uning majburiy ijrosi tasdiqlanadi. Shuningdek, mediatsiyani ommalashtirishda mediatorlar uchun interaktiv platforma yaratildi. Yetakchi xalqaro tashkilotlar bilan qo‘shma mediatsiya markazlarini tashkil etishga ahamiyat berildi. Davlat esa uni har tomonlama qo‘llab-quvvatladi.

Singapurda esa mediatsiya jarayonlaridan foydalanish imkoniyatlarini muhokama qilish uchun sudgacha eshituvlar joriy qilingan. Sud mediatsiyasi joriy etildi. Nizoni mediativ kelishuv yo‘li bilan hal qilishni asossiz rad etganlik uchun sanksiyalar qo‘llanilishi ham belgilandi. Davlat nizolarni hal qilishning muqobil usullarini o‘rganadigan qo‘mitani tashkil etdi. Davlat muassasalari huzurida xususiy tijorat mediatsiya markazlari yaratildi va mediatorlar reestri har bir markaz tomonidan alohida yuritiladi. Shuningdek, Oliy sud va Bosh prokuror tomonidan birinchi instansiya sudlarida davlat organlari bilan bog‘liq barcha nizolarda mediatsiyadan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Gruziyada mediatsiyani rivojlantirish maqsadida Adliya vazirligi va Oliy sud o‘rtasida hamkorlik o‘rnatilgan. Kelgusida mediatorlarni tayyorlash bo‘yicha tegishli xodimlarga seminar-treninglar o‘tkaziladi. Mediatsiya haqidagi axborotlar keng tarqatiladi. Mediatorlarning yagona reestri yuritiladi. Shuningdek, mediatorlarning Etika kodeksi, mediatorlarni attestatsiyadan o‘tkazish dasturini tasdiqlaydigan Mediatorlar Assotsiatsiyasi (qonun asosida tuzilgan NNT) tuzilgan. Bundan tashqari, sud tizimida davlat budjetidan moliyalashtiriladigan mediatsiyani bepul amalga oshiruvchi sudya-mediator lavozimi joriy etilgan. Tarafning murojaatiga ko‘ra mediativ kelishuv majburiy ijro etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda huquqni qo‘llash va sud amaliyotida yarashtirish tartib-taomillarini rivojlantirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilganiga qaramasdan mazkur institut jamiyatimizda haligacha yetarlicha ommalashib ulgurmas. Shu boisdan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuvga erishishda to‘siq bo‘layotgan muammolarni aniqlash, ularga yechim topish va yarashtirish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish milliy qonunchilikda dolzarbligicha qolmoqda. Bu o‘z navbatida, mazkur sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishni, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganib amaliyotga tatbiq etishni talab etadi.

FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
 2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.
 3. O‘zbekiston Respublikasining Iqtisodiy prosessual kodeksi.
 4. O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida” Qonuni. 29.08.2001. 258-II-son.
 5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi Plenumining “Iqtisodiy sudlar tomonidan kelishuv bitimini tasdiqlashda protsessual qonun normalarining qo‘llanilishiga oid ayrim masalalar to‘g‘risida” qarori. 18.12.2009. 204-son.
 6. “Арбитражный процессуальный кодекс Российской Федерации” от 24.07.2002 N 95-ФЗ (ред. от 25.12.2023).
 7. Постановление Пленума Верховного Суда РФ от 31.10.2019 N 41 “Об утверждении Регламента проведения судебного примирения”. Стати 1, 10-11.
 8. Худойкина Т.В. Проблемы развития медиации в России. М. 2017 г.
- Elektron manbalar:
9. <http://www.lex.uz>
 10. <https://www.consultant.ru>
 11. <https://mediation-eurasia>.